

XALQARO RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDA DAVLATNING ROLI

Mallaboyev Anvarjon Sotvoldiyevich

Andijon davlat texnika instituti
“Iqtisodiyot” kafedrası doktoranti (DSc)
E-mail: mallaboyevanvarjon@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada milliy iqtisodiyot xalqaro raqobatbardoshligini ta'minlashda davlatning iqtisodiyotga aralashuvi va davlat tomonidan amalga oshiriladigan strategik vazifalar kompleks hamda tizimli yondashuv asosida tahlil qilingan. Xalqaro raqobatbardoshlikni oshirishda davlatning roli konseptual jihatdan asoslangan. Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish yuzasidan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: globallashuv, xalqaro raqobatbardoshlik, makroiqtisodiy barqarorlik, institutsional islohotlar, ilmiy tadqiqotlar va tajriba-konstruktorlik ishlari, texnologik infratuzilma.

Аннотация

В статье на основе комплексного и системного подхода анализируется вмешательство государства в экономику и стратегические задачи, выполняемые государством для обеспечения международной конкурентоспособности национальной экономики. Роль государства в повышении международной конкурентоспособности концептуально обоснована. Разработаны научное предложение и практические рекомендации по повышению конкурентоспособности национальной экономики.

Ключевые слова: глобализация, международная конкурентоспособность, макроэкономическая стабильность, институциональные реформы, научные исследования и экспериментальные строительные работы, технологическая инфраструктура.

Abstract

In the article, the intervention of the state in the economy and the strategic tasks performed by the state in ensuring the international competitiveness of the national economy are analyzed based on a complex and systematic approach. The role of the state in increasing international competitiveness is conceptually based. A scientific proposal and practical recommendations have been developed to increase the competitiveness of the national economy.

Keywords: Globalization, international competitiveness, macroeconomic stability, institutional reforms, scientific research and experimental construction work, technological infrastructure.

KIRISH

Globallashuv va tarkibiy transformatsiyalashuv jarayonlarining jadallashuvi sharoitida jahon iqtisodiyotida xalqaro raqobatning kuchayib borishi muhim iqtisodiy jarayon hisoblanadi. Milliy iqtisodiyot xalqaro raqobatbardoshligini oshirish va aholi

turmush sifatini yaxshilash davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri boʻlib, ushbu maqsadlarga erishish davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, institutsional islohotlarni chuqurlashtirish va izchil makroiqtisodiy islohotlar olib borishni talab qiladi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohalarda keng koʻlamli islohotlar amalga oshirilib, barqaror iqtisodiy oʻsishni taʼminlash va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish borasida muhim natijalarga erishildi. Xususan, 2025-yil yakunlariga koʻra, mamlakatimiz tarixida birinchi marta yalpi ichki mahsulot hajmi 145 milliard AQSH dollardan oshdi, eksport hajmini 23 foizga oshirib, 33,4 milliard AQSH dollarga yetkazish vazifasi belgilandi, shuningdek, oltin-valyuta zaxiralari ilk bor 60 milliard AQSH dollardan oshganligi taʼkidlandi. [1]

Oʻtgan qisqa davr mobaynida erishilgan ijobiy natijalar mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotining yangi sifat bosqichiga oʻtayotganligini koʻrsatib, milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni yanada kuchaytirishni taqozo etmoqda.

Zero, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev taʼkidlab oʻtganidek, “Biz Yangi Oʻzbekistonni barpo etishda hal qiluvchi bosqichga qadam qoʻymoqdamiz. Bu yoʻldagi ishlarimiz har bir soha va tarmoqda chuqur transformatsiyani talab qiladi. Shu sababli 2026-yil davlat boshqaruvi, sud-huquq tizimi, iqtisodiyot tarmoqlari, taʼlim, ilm-fan, tibbiyot, madaniyat, sport, ekologiya tizimini - barcha-barcha sohalarni rivojlantirishda tub burilish yili boʻladi”. [1]

Yuqorida keltirilgan masalalarni amalga oshirish koʻp jihatdan milliy iqtisodiyot xalqaro raqobatbardoshligini oshirishda davlatning roli, uning institutsional, tashkiliy va strategik funksiyalari bilan bogʻliq chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolaning maqsadi xalqaro raqobatbardoshlikni taʼminlashda davlatning roli, taʼsir mexanizmlari hamda ustuvor yoʻnalishlarini aniqlashdan iboratdir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, xalqaro raqobatbardoshlikni oshirishda davlatning roli masalalari yuzasidan iqtisodchi olimlar tomonidan koʻplab ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Shveysariyalik iqtisodchi olim, Xalqaro Menejmentni Rivojlantirish Instituti (International Institute for Management Development - IMD) professori Garelli Stephane xalqaro raqobatbardoshlikka davlat siyosati va institutsional muhit samaradorligi taʼsiri bilan bogʻliq ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Garelli “Millatlar raqobatbardoshligi: fundamental asoslari” (Competitiveness of Nations: The Fundamentals) nomli monografiyasida milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligi makroiqtisodiy koʻrsatkichlar bilan birga, davlat boshqaruvi samaradorligi, institutsional tuzilmalar sifati, investitsiya muhiti, infratuzilmaning rivojlanganligi va innovatsion salohiyat kabi omillar bilan ham belgilanishini ilgari surgan. [2]

Germaniyaning Nyurnberg universiteti professori Wilhelm Lachmann rivojlanayotgan mamlakatlarda raqobat qonunchiligi hamda bozor institutlarining shakllanishi muammolarini oʻrgangan. Lachmannning Birlashgan Millatlar Tashkiloti

Savdo va Rivojlanish Konferensiyasi (United Nations Conference on Trade and Development - UNCTAD) dagi “Raqobat qonunchiligi va siyosati rivojlanishini baholash” (The Development Dimension of Competition Law and Policy) nomli hisobotida raqobat qonunchiligining iqtisodiy rivojlanishga ta’siri hamda rivojlanayotgan mamlakatlarda samarali bozor muhitini shakllantirishda davlat institutsional siyosatining o’rni tahlil qilingan. Lachmann davlat raqobat siyosatining asosiy maqsadi bozorda adolatli raqobat muhitini shakllantirish, monopoliyalarni bartaraf etish kabi strategik davlat dasturlari orqali iqtisodiy samaradorlik va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishdan iborat ekanligini ta’kidlaydi. [3]

Amerikalik olim Dennis A. Rondinelli globallashuv sharoitida davlatning iqtisodiyotdagi an’anaviy funksiyalarining o’zgarishi, davlat va xususiy sektor hamkorligi hamda milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini ta’minlash masalalari yuzasidan tadqiqotlar olib borgan. Rondinellining “Yigirma birinchi asrda davlatning qayta kashf etilishi: globallashuv sharoitida davlat salohiyati” (Reinventing Government for the Twenty-First Century: State Capacity in a Globalizing Society) nomli asarida milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishda davlatning asosiy vazifalari sifatida samarali institutsional va huquqiy muhit yaratish, infratuzilma va inson kapitalini rivojlantirish, xususiy sektor rivojlanishini rag’batlantirish, bozorda adolatli raqobatni ta’minlash hamda xalqaro savdo va investitsiyalar uchun qulay sharoit yaratish kabi masalalar tahlil qilingan. [4]

Turkiyalik iqtisodchi olimlar Coskun Can Aktan va İstiklal Yaşar Vural milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishda davlatning roli, institutsional islohotlar, samarali davlat boshqaruvi va bozor institutlarining rivojlanishi kabi muammolarni tadqiq etgan. Aktan “Yangi iqtisodiy siyosatlar va davlatning o’zgaruvchan roli” nomli asarida raqobatbardoshlikni oshirishda davlatning asosiy vazifasi samarali institutsional muhit yaratish, bozor mexanizmlarini qo’llab-quvvatlash va iqtisodiy erkinlikni ta’minlash ekanligini ilgari suradi. Aktan va Vuralning hamkorlikda olib borgan “Raqobatbardoshlik va raqobat siyosati” nomli tadqiqotlarida samarali davlat boshqaruvi va bozor institutlarining rivojlanishi mamlakat raqobatbardoshligini ta’minlovchi asosiy omillar ekanligi ta’kidlanadi. [5]

Xalqaro raqobatbardoshlikni oshirishda davlatning roli masalalari yuzasidan milliy tadqiqotchilarimiz tomonidan bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Iqtisodchi olim M.T. Yaxshiyeva milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini davlat tomonidan tartibga solish sabablari, raqobat muhiti yuzaga kelishi va uni saqlashda davlatning roli hamda milliy iqtisodiyotda raqobat muhitini shakllantirishning institutsional asoslari yuzasidan tadqiqotlar olib borgan. Shuningdek, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish tamoyillari, monopoliyalar faoliyatini cheklashning huquqiy asoslari, milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligiga ta’sir ko’rsatuvchi omillar hamda milliy iqtisodiyotda raqobat muhitini shakllantirishda iqtisodiy institutlarning o’rni kabi masalalar o’rganilgan. [6]

METODOLOGIYA

Tadqiqot jarayonida nazariy manbalarni o’rganish, tizimli yondashuv, mantiqiy tahlil, qiyosiy taqqoslash, ilmiy abstraksiya va umumlashtirish, tasniflash hamda

guruhlash usullaridan samarali foydalanilgan. Davlatning institutsional, tashkiliy va strategik funksiyalari tizimlashtirilib, ularning xalqaro raqobatbardoshlikka ta'siri ilmiy jihatdan asoslangan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sivilizatsiyalashgan jamiyatlarda davlat muhim siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy kuch sifatida qabul qilinadi. An'anaviy tarzda davlatning roli milliy mudofaani tashkil etish, tashqi iqtisodiy aloqalarni boshqarish va huquqni himoya qilishdan iboratdir. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan tizimda davlatning asosiy vazifasi jamiyatning xavfsizligi va farovonligini ta'minlash, ijtimoiy tovar va xizmatlarni samarali shaklda taklif etish, bozor faoliyatini tartibga soluvchi o'zaro tenglik va adolat qoidalarini joriy etish hamda tashqi dunyoga ochiq erkin raqobat muhitini yaratishdan iboratdir. Shu bilan birga, davlatning makroiqtisodiy muhitni yaxshilash, infratuzilmani rivojlantirish va firma faoliyatini qo'llab-quvvatlash kabi chora-tadbirlari milliy raqobatbardoshlikni oshiradi. Ushbu jihatdan davlatning iqtisodiyotga aralashuvini quyidagi yo'nalishlarga ajratish mumkin[7]:

- funksional aralashuvlar: ta'lim, sog'liqni saqlash va infratuzilma kabi sohalarda makroiqtisodiy tizimga ta'sir ko'rsatuvchi, firmalarga nisbatan neytral ta'sirga ega bo'lgan va qonunlarni amaliyotga joriy qilish samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat aralashuvlari;

- selektiv aralashuvlar: tashqi savdoni muvozanatli tartibga solish, eksportni rag'batlantirish, ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik faoliyatlarini qo'llab-quvvatlash kabi muayyan tarmoq yoki firmalarga yo'naltirilgan davlat aralashuvlari.


Davlat tomonidan olib boriladigan bozor tadqiqotlari, mamlakat xalqaro nufuzini oshirishga qaratilgan faoliyatlar hamda firmalarning jahon bozorlariga dastlabki kirish bosqichida qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari raqobatbardoshlikka ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi davlat aralashuvlari hisoblanadi. Shu bilan birga, oliy ta'lim va sanoat o'rtasida hamkorlikni yo'lga qo'yish, sanoatni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish, ilmiy texnoparklar tashkil etish orqali turli yo'nalishlardagi firmalarni birlashtirish, ular o'rtasidagi hamkorlik va o'zaro ta'sirchanlikni rag'batlantiruvchi davlat siyosatlari firmalar raqobatbardoshligini oshiradi.

Mahalliy firmalarning raqobatbardoshligini oshirish va uning barqarorligini ta'minlashda davlatning asosiy vazifasi milliy raqobat qonunchiligi va siyosati samaradorligini kuchaytirish orqali qulay raqobat muhitini shakllantirishdan iboratdir. Qulay raqobat muhitini yaratish esa makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlash, savdoni erkinlashtirish, tashqi savdoni oqilona tartibga solish, shuningdek ilmiy asosga ega va shaffof sanoat siyosatini yuritish, davlat xizmatlarini optimallashtirish va modernizatsiya qilish, bozorlarda monopoliyalashuv jarayonlarining oldini olish orqali amalga oshiriladi.

Shu nuqtai nazardan, raqobatbardoshlikni oshirishda davlatning roli 1-rasmda keltirilgan strategik vazifalarni amalga oshirish bilan uzviy bog'liqdir.

Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishda davlatning roli ko'p qirrali va murakkab xususiyatga ega bo'lib, davlat ishtirokini alohida ustuvor yo'nalishlariga

ko'ra tasniflash va tahlil qilish muammoni chuqurroq anglash hamda ilmiy jihatdan asoslash imkonini beradi. (1-jadval).



1-rasm. Raqobatbardoshlikni oshirish maqsadida davlat tomonidan amalga oshiriladigan strategik vazifalar¹.

¹ Nazariy ma'lumotlar asosida muallif tomonidan ishlangan. Manba : Lachmann W., "The Development Dimension of Competition Law and Policy", UNCTAD Series on Issues in Competition Law and Policy, United Nations, New York and Geneva, 1999. 19-21 pp. Güner Tuncer. Uluslararası rekabet gücünün teşvikinde devletin rolü: Türkiye örneği. T.C. Dumlupınar Üniversitesi. Yüksek lisans tezi. Kütahya-2009. 33 s.

Davlat sektori samaradorligini oshirish xalqaro raqobatbardoshlikni oshirishning ustuvor yoʻnalishlaridan biri boʻlib, tarkibiy jihatdan quyidagi chora-tadbirlarni oʻz ichiga oladi:

1. Huquqiy institutlar faoliyatini takomillashtirish. Davlat tomonidan xalqaro raqobatbardoshlikni oshirish kuchli, xolis va shaffof huquqiy institutlar faoliyatini yoʻlga qoʻyish bilan uzviy bogʻliqdir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida narx belgilash standartlarini joriy etish, antimonopol qonunchiligini takomillashtirish, valyuta ayirboshlash va moliyaviy munosabatlarni tartibga solish huquqiy institutlar tomonidan amalga oshiriladi. Xorijiy investorlar faoliyatini kafolatlovchi huquqiy standartlar bozorga kirish qoidalari, xorijiy firmalarni tashkil etish shartlari, milliy savdo tizimining umumiy standartlari hamda adolatli va xolis amaliyotni taʼminlovchi qoidalarni oʻz ichiga oladi. [8]

1-jadval.

Xalqaro raqobatbardoshlikni oshirishda davlatning roli¹.

T/r	Raqobatbardoshlikni oshirishning ustuvor yoʻnalishlari
I.	Davlat sektori samaradorligini oshirish
1.	Huquqiy institutlar faoliyatini takomillashtirish
2.	Mulk huquqlarini himoya qilish tizimini mustahkamlash
3.	Davlat boshqaruvining samaradorligi, hisobdorligi va moslashuvchanligini oshirish: - korrupsiyaga qarshi kurashish va axloqiy meʼyorlarni joriy etish; - davlat boshqaruvining masʼuliyatini oshirish; - mahalliy boshqaruv vakolatlarini kengaytirish.
II.	Makroiqtisodiy barqarorlikni taʼminlash va makroiqtisodiy islohotlarni olib borish
1.	Tashqi savdoni liberallashtirish va ochiq iqtisodiyotni shakllantirish
2.	Innovatsiyalarni rivojlantirishda davlat-sanoat hamkorligini mustahkamlash.
3.	Taʼlim tizimi sifatini oshirish
4.	Ilmiy tadqiqotlar va konstruktorlik faoliyatlarini ragʻbatlantirish
5.	Moddiy va texnologik infratuzilmani rivojlantirish

2. Mulk huquqlarini himoya qilish tizimini mustahkamlash. Mulk huquqining aniq va ravshan belgilanganligi resurslardan optimal va samarali foydalanishni taʼminlaydi. Mulk huquqidagi noaniqliklar davlatga tegishli mulk obyektlarining nooʻrin foydalanilishi, suiisteʼmol qilinishi, haddan tashqari ekspluatatsiya qilinishi yoki mutlaqo foydalanilmasligi kabi salbiy holatlarni keltirib chiqaradi va resurslarning samarasiz taqsimlanishiga olib keladi. [9]

3. Davlat boshqaruvining samaradorligi, hisobdorligi va moslashuvchanligini oshirish, korrupsiyaga qarshi kurashish va axloqiy meʼyorlarni joriy qilish, davlat boshqaruvining masʼuliyatini oshirish, mahalliy boshqaruv vakolatlarini kengaytirish (decentralization) kabi yoʻnalishlarda amalga oshiriladi. Kuchli bozor institutlari, ochiq va shaffof qoidalar, samarali faoliyat yurituvchi funksional nazorat va muvozanat mexanizmlarining mavjudligi, adolatli regulyatorlik amaliyotlari va qulay raqobat muhiti korrupsiyaning shakllanishi va uni keltirib chiqaruvchi omillarni

¹ Nazariy maʼlumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

kamaytiradi. Davlat institutlarining mas'uliyatini oshirish umumiy standartlar va adolatli tanlov mezonlari hamda meritokratiya tamoyillari asosida lavozimlarga tayinlash tizimini joriy etishni, ishga qabul qilish va lavozimlarga ko'tarishda siyosiy hamda boshqa salbiy ta'sirlardan holi bo'lishni nazarda tutadi. Mahalliy boshqaruv vakolatlarini kengaytirish (decentralization) hisobdorlik va shaffoflikni ta'minlash, shuningdek, plyuralizm va fuqarolar ishtirokini faollashtirishda muhim strategik yo'nalish hisoblanadi. Qaror qabul qilish vakolatlarini markazdan mahalliy institutlarga o'tkazish davlat markaziy boshqaruv organlari idoralari ish yukini kamaytiradi va davlat xizmatlari samaradorligini oshiradi. [4] [7]

Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishda makroiqtisodiy barqarorlikning ta'minlanishi muhim ahamiyatga egadir. Makroiqtisodiy muhitning yaxshilanishi mahalliy va xorijiy firmalarning investitsiya qarorlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Davlat qarzining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini kamaytirish, soliq yukini adolatli taqsimlash va yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish kabi chora-tadbirlar soliq tushumlarini oshiradi hamda davlat xarajatlari samaradorligini ta'minlaydi. Tarkibiy islohotlarni olib borish, inflyatsiya ko'rsatkichlarining quyi darajasi va barqarorligini ta'minlash, foiz stavkalarini investitsiyalar uchun eng qulay darajaga tushirish, barqaror manbalar hisobiga moliyalashtiriladigan joriy operatsiyalar balansini ta'minlash, eksportda yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini oshirish hamda eksport o'sishining uzluksizligini ta'minlash asosiy makroiqtisodiy maqsadlar hisoblanadi. [10]

Xalqaro raqobatbardoshlikni oshirishda davlat tomonidan olib boriladigan makroiqtisodiy islohotlarning asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilarni keltirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. Tashqi savdoni liberallashtirish va ochiq iqtisodiyotni shakllantirish. Raqobatbardoshlikni shakllantirish va uning barqarorligini ta'minlashda davlat tomonidan olib boriladigan tashqi savdo va investitsiya siyosati muhim ahamiyatga egadir. Globallashuv sharoitida milliy raqobatbardoshlik mamlakatning ichki iqtisodiy imkoniyatlari va resurslari bilan birga, uning jahon mamlakatlari bilan samarali iqtisodiy hamkorlikni yo'lga qo'yish qobiliyatlariga ham bog'liqdir. Tashqi savdo munosabatlarining huquqiy asoslarini liberallashtirish va samarali investitsiya siyosatini olib borish tarkibiy islohotlarning asosiy yo'nalishlari hisoblanadi. Tarkibiy islohotlar, odatda, eksport bozorlarini kengaytirish hamda tashqi savdo va investitsiya yo'nalishida samarali tashqi aloqalarni yo'lga qo'yish maqsadida olib boriladi. Ushbu maqsadlar eksportni oshirish, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, valyuta ayirboshlash munosabatlarini tartibga solish, tashqi savdoni bosqichma-bosqich erkinlashtirish kabi erkin savdo va investitsiya siyosatlarini o'z ichiga oladi [11].

2. Innovatsiyalarni rivojlantirishda davlat-sanoat hamkorligini mustahkamlash. Xalqaro raqobatbardoshlikni oshirishning ustuvor shartlaridan biri sifatida innovatsiyalarni rivojlantirish jarayonida davlat-sanoat hamkorligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsiyalarni rivojlantirishda davlat va sanoat o'rtasida samarali hamkorlikni ta'minlash uchun milliy innovatsion tizimni

shakllantirish zarurdir. Milliy innovatsion tizimni shakllantirish davlat tomonidan quyidagi vazifalarni amalga oshirish bilan bog‘liqdir[12]:

- sanoat, davlat va universitetlarda faoliyat yuritayotgan tadqiqotchilar o‘rtasida ma’lumotlar almashinuvi va axborot tarmog‘ini mustahkamlaydigan infratuzilmani rivojlantirish;

- texnologiyalarni rivojlantirishda xususiy sektor faoliyatini hamda xususiy va davlat sektori hamkorligini kuchaytirishga xizmat qiluvchi mexanizmlarni yaratish;

- yangi texnologiyalar haqidagi bilim va ma’lumotlarni keng tarqatish vositalarini shakllantirish;

- boshqaruv amaliyotlari, inson resurslari va turli tashkiliy tuzilmalar faoliyati yuzasidan ilg‘or tajriba hamda axborotlarni tarqatish;

- takomillashtirish markazlari yordamida sanoat, davlat va universitet hamkorligini qulaylashtirish hamda ilmiy tadqiqot natijalarini tijoratlashirish jarayonini jadallashtirish.

3. Ta’lim tizimi sifatini oshirish. Yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish, ixtirochilik qobiliyatlarini rivojlantirish, xalqaro standart va sifatlarga mos raqobatbardosh tovar hamda xizmatlarni ishlab chiqarish orqali global bozorlarga integratsiyalashuv mamlakatning ta’lim tizimi samaradorligi bilan uzviy bog‘liqdir. Sanoat tarmoqlarining tarkibiy jihatdan yangilanib va murakkablashib borishi tarmoqlarning yuqori sifatli hamda malakali inson kapitaliga bo‘lgan talabini oshiradi. Boshqacha aytganda, milliy sanoatda tarkibiy sifat o‘zgarishlariga erishish malakali ishchi kuchi taklifini oshirishni talab qiladi. Shu sababli, sanoatdagi tarkibiy o‘zgarishlarni oldindan prognoz qilish asosida tarmoq ehtiyojlaridan kelib chiqib inson kapitalini rivojlantirish dolzarb ahamiyatga egadir. [13]

4. Ilmiy tadqiqotlar va konstruktorlik faoliyatlarini rag‘batlantirish. Davlat tomonidan ilmiy tadqiqotlar va tajriba-konstruktorlik ishlari (ITTKI) ga xarajatlar ulushini oshirish mamlakatning bilimlar iqtisodiyotiga o‘tish jarayonini jadallashtiradi va raqobatbardosh ustunlikni ta’minlaydi. Keyingi yarim asr mobaynida Sharqiy Osiyo mamlakatlarining yalpi ichki mahsulotdan ITTKIga ajratmalar ulushini oshirish va xorijdan ilg‘or texnologiyalarni transfer qilish hisobiga yuqori texnologiyali mahsulotlar eksportida diqqatga sazovor ijobiy natijalarga erishganliklarini ko‘rish mumkin. ITTKIga qilingan xarajatlar ixtiro va innovatsiyalarni rag‘batlantirish orqali texnologik rivojlanishni ta’minlaydi hamda kapital jamg‘arilishini va resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi. [14]

5. Moddiy va texnologik infratuzilmani rivojlantirish. Hozirgi kunga kelib kam rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda urbanizatsiya va sanoatlashuv jarayonlari, jadal demografik o‘zgarishlar natijasida moddiy infratuzilmaga bo‘lgan talab miqdor va sifat jihatidan kun sayin ortib bormoqda. Energiya ta’minotining uzluksizligi, ishonchliligi va minimal xarajatlar asosida yetkazib berilishi, tovar va xizmatlar ishlab chiqarish infratuzilmasining sifat jihatidan yaxshilanishi raqobatbardoshlikni oshiradi. Transport va telekommunikatsiya infratuzilmasiga yo‘naltirilgan xarajatlar ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish bilan bir qatorda

sanoat ishlab chiqarishining oʻsishi va hududlararo savdo xarajatlarini kamaytirish orqali mamlakat raqobatbardoshligini mustahkamlaydi. [15]

Davlat tomonidan texnologik infratuzilmaning yaratilishi va uni rivojlantirilishi raqobatbardoshlikni oshirish jihatidan muhim ahamiyatga egadir. Texnoparklar va sanoat klasterlari firmalar, universitetlar va ilmiy tadqiqot institutlarini yagona hududga joylashtirish orqali ular oʻrtasida oʻzaro hamkorlikni rivojlantiradi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda davlat, ilmiy jamoatchilik, ilmiy tadqiqotlar olib boruvchi xususiy sektor, xorijiy texnologiyalarni olib kiruvchi sanoat tarmoqlari va boshqa manfaatdor guruhlarning oʻzaro hamkorlikdagi faoliyati hamda mavjud muammolarni ochiq munozara va muhokamalar orqali hal qilish mexanizmlarining joriy etilishi muhim ahamiyatga egadir. [16]

Davlatning texnologik taraqqiyotni taʼminlash, yuqori texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish infratuzilmasini yaratish, innovatsiya va ixtirolarni koʻpaytirish maqsadida qoʻshimcha ravishda ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik muassasalarini tashkil etish hamda xususiy sektorning ushbu sohadagi faoliyatlarini qoʻllab-quvvatlash kabi chora-tadbirlarni amalga oshirishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shu bilan birga, texnologiyalarni rivojlantirish markazlarini tashkil etish, texnologik yutuqlarni namoyish qilish, xususiy firmalarning innovatsiyalarga erishishini qulaylashtirish, texnik yordam koʻrsatish, taʼlim xizmatlarini yoʻlga qoʻyish, standartlarni joriy etish hamda ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik loyihalarini moliyaviy jihatdan qoʻllab-quvvatlash kabi amaliyotlar raqobatbardoshlikni oshirish maqsadidagi iqtisodiyotga davlat aralashuvining samaradorligini oshirishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qiladigan boʻlsak, olib borilgan konseptual tahlillar asosida mamlakatimiz xalqaro raqobatbardoshligini oshirishda quyidagi ustuvor yoʻnalishlarni taklif qilish maqsadga muvofiq boʻladi:

1. Davlat sektori samaradorligini oshirish maqsadida huquqiy institutlar faoliyatini takomillashtirish, mulk huquqlarini himoya qilish tizimini mustahkamlash, davlat boshqaruvining samaradorligi, hisobdorligi va moslashuvchanligini oshirish.

2. Tashqi savdo va investitsiya siyosatini liberallashtirish hamda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish maqsadida qulay institutsional va huquqiy muhitni shakllantirish.

3. Davlat va xususiy sektor oʻrtasidagi hamkorlikni institutsional jihatdan mustahkamlash, ilmiy tadqiqot muassasalari, universitetlar va ishlab chiqarish korxonalarini oʻrtasidagi innovatsion klasterlarni rivojlantirish.

4. Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida yuqori qoʻshilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni ragʻbatlantirish, sanoat tarmogʻida chuqur qayta ishlash va texnologik modernizatsiya jarayonlarini jadallashtirish.

5. Sanoat tarmoqlaridagi tarkibiy oʻzgarishlar va mehnat bozori ehtiyojlarini inobatga olgan holda inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan taʼlim siyosatini takomillashtirish.

6. Innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash maqsadida ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini moliyalashtirish hajmini oshirish, intellektual kapitaldan samarali foydalanish mexanizmlarini joriy etish.

Yuqorida keltirilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarning izchil hamda bosqichma-bosqich amalga oshirilishi milliy iqtisodiyot xalqaro raqobatbardoshligini oshiradi va aholi turmush farovonligini yaxshilashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 26.12.2025.

<https://president.uz/uz/lists/view/8834>

2. Garelli Stephane, “Competitiveness of Nations: The Fundamentals”, IMD World Competitiveness Yearbook 2006, pp: 607-618, 2006.

3. Lachmann W., “the Development Dimension of Competition Law and Policy”, UNCTAD Series on Issues in Competition Law and Policy, United Nations, New York and Geneva, 1999.

4. Rondinelli Dennis A., “Promoting National Competitiveness in a Globalizing Economy: the State’s Changing Roles”, 2003.

5. Aktan C.Can ve Istiklal Yasar Vural, Rekabet Gucu ve Rekabet Stratejileri, Türkiye Isveren Sendikaları Konfederasyonu Yayınları, 2004 a.

6. M.T. Yaxshiyeva. Hozirgi zamon raqobat nazariyasi: o‘quv qo‘llanma. - T.: TDIU, 2019.

7. Guner Tuncer. Uluslararası rekabet gucunun tesvikiinde devletin rolu: Turkiye ornegi. T.C. Dumlupınar Universitesi. Yuksek lisans tezi. Kutahya-2009. 24-25 ss.

8. SaygılıoGlu Nevzat ve Selcuk Arı, Etkin Devlet Kurumsal Bir Tasarı ve Politika Onerisi, Sabancı Universitesi Yayınları, 2002.

9. Demir Ibrahim, “Bir Devlet Basarisızlığı Olarak Temsili Demokrasilerde Etkinsizlikler ve Sebepleri”, Ed. Coskun Can Aktan, En Az Devlet En İyi Devlet Devlet Basarisızlığının Anatomisi, Cizgi Kitabevi, 2006. s.178.

10. Kotan, Z. (2002). Uluslararası Rekabet Gucu Gostergeleri ve Turkiye Ornegi, Turkiye Cumhuriyeti Merkez Bankası Arastırmalar Genel Mudurlugu, 4 s.

11. Rondinelli, D. A. (2003). “Transnational Corporations, International Competitiveness, and Economic Development.” In: The Future of Foreign Investment. London: Routledge. 18-19 pp.

12. Hirshhorn Ronald, Serge Nadeau, Someshwar Rao, “Innovation in a Knowledge-Based Economy: the Role of Government”, 2000.

13. Sebnem Arık. Rekabet gucunun yapısal belirleyicileri : Turkiye ve sesilmis ulkeler icin panel veri analizi. Akdeniz Universitesi. Iktisat ana bilim dali. Doktora tezi. Antalya 2019. 15-18 ss.

14. Alemu, A. M. (2013). “The Nexus Between Technological Infrastructure and Export Competitiveness of High-Tech Products in East Asian Economies”. Journal of Economic Development, Management, IT, Finance and Marketing, 5(1): 17 p.

15. Z.C.Yurtancıkımaz. Secilmis ulkelerde rekabet gucunun belirleyicileri ve buyume iliskileri. T.C. Ataturk Universitesi. Doktora tezi. Erzurum 2014. 97 s.

16. Nabi Ijaz and Manjula Luthria, “Building Competitiveness: A Roadmap and Policy Guide”, Ed. Ijaz Nabi, Building Competitive Firms: Incentives and Capabilities, Washington, DC, USA: World Bank Publications, pp: 21-282, 2002



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, aprel, 4-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**